


BYUDJET TIZIMINI ISLOH QILISHNING ASOSIY
YO'NALISHLARI

Naimova Nargiza Akbarovna
Osiyo xalqaro universiteti


Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning erkinlashuvi va ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodining shakllanishi va ijtimoiy sohalar taraqqiyotida rivojlangan davlatlar ijobiliy tajribalari hamda milliy qadriyatlarimiz xususiyatlarini hisobga olgan holda byudjetdan moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va byudjet tizimini isloh qilish bo'yicha kerakli xulosa va tavsiyalar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Byudjet, byudjet taqchilligi, loyihibar, moliyaviy tizim, strategiya, infratuzilma, xususiy kapital.*



O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, o'tgan davr ichida chuqr iqtisodiy siyosat negizida barqaror moliyaviy tizimni, shuningdek, uning asosini tashkil etuvchi mustahkam byudjet tizimini shakllantirish sohasida muayyan ijobiliy ishlar amalga oshirildi. Dastavval asosiya qomusimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mamlakatimizning Davlat byudjeti shaklan qonuniy asoslاب berildi. O'tgan davr ichidagi barqaror byudjet tizimini to'liq shakllantirish sohasidagi barcha ishlarimiz va tajribalarimiz bu sohadagi jahon tajribasi bilan uyg'unlashdi, bu esa O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonunda o'zining huquqiy aksini topdi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida byudjet tizimini boshqarishda ko'pgina o'zgarishlar mavjud. Bu o'zgarishlar birinchidan O'zbekiston Respublikasida Davlat byudjetining maqomi o'zgarganligi bilan bog'liqdir, ikkinchidan hokimiyat tiziminining va mulkchilik shakllarining o'zgarishi munosabati bilan mahalliy byudjetlarning tarkibi o'zgardi. Uchinchidan, respublika davlat byudjetining vazifalari va uni moliyalashtirish manbalari o'zgarishi munosabati bilan mahalliy byudjetlarning ham moliyaviy manbalari o'zgardi.



2000 yil 14 dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonunini qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi tuzilishi hamda uni boshqarish asoslarini hamda davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish tartibini va Davlat byudjetining daromadlarini shakllantirish hamda uning xarajatlarni amalga oshirish prinsiplarini ko'rsatib berdi. Shuningdek, mazkur qonun davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtaidagi o'zaro munosabatlarni hamda davlat byudjeti mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida hisobga olish, hisobot va nazorat qilish tartibini belgilaydi.

Byudjet tizimining xarajatlari davlat va mahalliy xarajatlarning asosiy qismini tashkil qiladi. Davlat byudjeti xarajatlarni tarkibi va nisbati muayyan davrda davlat oldida turgan vazifalar bilan belgilanadi. Byudjet xarajatlari daromad tarkibi, hajmiga bog'liq bo'lib, ularga o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Byudjet tizimi xarajatlari tarkibi quyidagi yo'naliishlarda sarfxarajatlarni o'z ichiga oladi. Byudjet tizimi xarajatlarini taqsimlash

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

paytida ikki muhim vazifa hal etiladi. O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlarini ular oldida turgan vazifalarni bajarish uchun etarli bo'lgan mablag' bilan ta'minlanishiga erishiladi. Turli darajadagi byudjetlarga ular faoliyati doirasiga muvofiq keladigan xarajatlar yuklanadi.

Byudjet tizimini boshqarishda daromad va xarajatlarni byudjetlar o'rtasida taqsimlash jarayoni quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- byudjetlarni samarali muvofiqlashtirishga erishish, ular o'rtasida to'g'ri nisbat o'rnatishni ta'minlash;
- moliyaviy ta'minlanadigan xarajatning ahamiyatliliga e'tibor qaratish;
- daromadlarni boshqarishda hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishga amal qilish;
- respublika va mahalliy hokimiyat idoralarini ayrim turdag'i daromadlarini taqsimlashda mustqillikni ta'minlash.

Barcha darajadagi byudjetlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular shakllanishining ba'zi bir bosqichlari doimiy ravishda yangilanib turadi va byudjet doimiy ijro etib boriladi. Bu hol u yoki bu darajadagi byudjetlarni muayyan davr davomida amal qilishi, bu muddat tamom bo'lishi bilan yangidan qabul qilinishi bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Narxlarni erkinlashtirishga doir choratadbirlar to'g'risida»gi Qarori O'zbekistonda narxlarning erkinlashtirilishiga asos bo'ldi, bu qarorga muvofiq 1992-yil 10-yanvardan boshlab, respublikada ishlab chiqarish maqsadidagi texnik mollarga, xalq iste'moli mollariga, ishlar va xizmatlarga nisbatan shartnomaviy narxlar va tarif larga o'tildi.

Respublika hukumati aholini himoya qilish maqsadida ba'zi sanoat mollariga narxlar va aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning ayrim turlariga tariflarning cheklab qo'yilgan miqdorlarini belgiladi. Ishlab chiqaruvchilarga donni import qilishning, non, un, va boshqa oziqovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlarning bir qismi respublika byudjetidan qoplanadigan bo'ldi. Umumiyligi ovqatlanish korxonalarining maktab o'quvchilari va talabalariga bepul nonushtalar berish va imtiyozli ovqatlantirishi yuzasidan vujudga keladigan zararlari ham davlat mablag'lari hisobidan qoplama boshladи. Bundan tashqari, kir sovun, bolalarga tegishli mollarni ishlab chiqarish va aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar uchun dotatsiya ajratiladigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning erkinlashuvi va ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodining shakllanishi va ijtimoiy sohalar taraqqiyotida rivojlangan davlatlar ijobjiy tajribalari hamda milliy qadriyatlarimiz xususiyatlarini hisobga olgan holda, byudjetdan moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va byudjet tizimini isloh qilish davom etmoqda.

Darhaqiqat, yangi ijtimoiyiqtisodiy sharoitlarda byudjetdan moliyalashtiriladigan sohalar taraqqiyotining moliyalashtirish tizimi hayot qo'yayotgan talablar va ushbu sohaning ahamiyati nuqtai nazaridan takomillashtirilmoxda. Islohotlarning keyingi bosqichida aholini ijtimoiy himoya qilish va kam ta'minlangan oilalarga ko'maklashuv tizimi takomillashtirildi, aholini ijtimoiy himoyalashning ta'sirchan mexanizmi

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

shakllantirildi, o‘zgarib borayotgan ijtimoiyiqtisodiy sharoitlarga muvofiq holda, byudjet tizimini boshqarishda yangi shaklusullar paydo bo‘ldi.

Masalan, byudjet mablag‘laridan tejab, samarali va aniq maqsadlarda foydalanish hamda byudjet intizomini, shtatsmeta intizomini mustahkamlash uchun byudjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas’uliyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-son «Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minalash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi.

Davolash muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sog‘liqni saqlashni mablag‘ bilan ta’minalashga yo‘naltirilayotgan byudjet mablag‘laridan yanada oqilona foydalanish, turg‘un davolanishdagi fuqarolarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish maqsadida 1997-yil 2-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasida 1998-yilning 1-yanvaridan boshlab turg‘un davolash profilaktika muassasalarida davolanayotgan kishilar uchun ovqatlanish to‘lovi joriy etildi. Turg‘un davolanish profilaktika muassasalarida ovqatlanish to‘lovi fuqarolarning shaxsiy mablag‘lari, korxonalar, tashkilotlar, xayriya jamg‘armalarining va boshqa homiylarning mablag‘lari hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

Mulkchilik shakllaridan qat‘i nazar, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarining rahbarlariga mehnat jamoalari bilan kelishilgan holda, turg‘un davolashprofilaktika muassasalarida ovqatlanish to‘lovini ularning tasarrufida qoladigan foya hisobiga amalga oshirishga ruxsat etiladi.

Turg‘un davolash profilaktika muassasalarida bemorlarning ayrim toifalari uchun ovqatlanish to‘lovi joriy etilishi, shuningdek, aholini dori-darmonlar bilan ta’milanishining tartibga solinishi munosabati bilan bo‘sheydigan byudjet mablag‘laridan davolash muassasalarini zamonaviy tibbiy texnika, asbob uskunalar, kasalliklarning oldini olish ishlarini kuchaytirish maqsadida sog‘liqni saqlash boshlang‘ich bo‘g‘inlarini rivojlantirish uchun maqsadli foydalanishga ruxsat etiladi. Ayni paytda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yanada takomillashtirish va pulli tibbiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini amaliyotga joriy qilish, bunda tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini muvofiq holda, amalga oshirish, ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar turi va shakllarini kengaytirishni nazarda tutish muhim vazifa etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1999-yil 26-avgustdagagi 806-son buyrug‘iga asosan, «Rejadagi respublika byudjeti xarajatlarini sxema asosida maqsadli moliyalashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qisqa muddatli kreditlarini ishlatilish tartibi to‘g‘risida» vaqtinchalik nizom ishlab chiqildi. Mazkur hujjatning asosiy maqsadi – byudjet to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlikni kamaytirishdir. Buyruqni ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi, Davlat Soliq qo‘mitasi, Bojaxona qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki qatnashdilar.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Respublikamizda olib borilayotgan mustaqil iqtisodiy siyosat xalqimiz uchun taraqqiyotning yangi qirralarini ohib bermoqda. YAqinyaqinlarda tasavvur qila olmagan hodisalarimiz hozirgi kunda odatiy bir voqealikka aylanib bormoqda. Bular jumlasiga mamlakatimiz davlat moliyasining markaziy bo‘g‘inida tub o‘zgarishlarni amalga oshirilishini yorqin misol qilib ko‘rsatsa bo‘ladi.

Barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish orqali mamlakat aholisining turmush farovonligi va milliy ishlab chiqarishning samaradorligini to‘xtovsiz oshirib borish, respublikaga chet el investisiyalarini jalb qilish uchun qulay shartsharoitlarni vujudga keltirish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish hamda uning xalqaro moliyabyudjetsoliq munosabatlarida teng mavqeini ta’minalash kabi dolzarb muammolarni muvaffaqiyatli hal qilish, ham byudjet siyosatini takomillashtirish va byudjet tizimini rivojlantirishga bog‘liqdir. Binobarin, har qanday mamlakatda oqilona yuritilgan byudjet siyosati mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladigan byudjetsoliq tizimining takomillashuviga olib keladi.

Mustaqil Respublikamizning bozor munosabatlariga o‘tishi sharoitida, demokratik davlat qurish yo‘lidan borayotgan pallalarda ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo‘lgani kabi byudjet tizimida ham chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirish hozirgi kunning asosiy talabidir.

Mamlakatning iqtisodiy siyosatini barqaror amalga oshirishida davlat moliyasi asosiy funksiyani bajaradi. Davlat moliya tizimining asosini byudjet tizimi tashkil etadi. Byudjet tizimi bir tomonidan, resurslarning hal qiluvchi qismini o‘zida jamlaydi, ikkinchi tomonidan esa barcha moliya bo‘g‘inlari va muassasalarining o‘zaro aloqadorligini ta’milaydi, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimida muhim tarkibiy qismni mahalliy byudjetlar tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar byudjet jarayoni va byudjetning huquq va majburiyatlarini bajarilishini ijtimoiyiqtisodiy yaratuvchanlik ruhida qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda.

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. Karimov ta’kidlaganidek, «Iqtisodiy o‘sish sur’atlari ta’minalangan hamda moliyaviy barqarorlikka erishishga yo‘naltirilgan islohotlarni amalga oshirishda davlat moliyasi va ayniqsa, byudjet tizimi barqarorligini mustahkamlash muhim strategik vazifa hisoblanadi»¹.

Byudjet tizimi murakkab mexanizm bo‘lib, muayyan mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiyiqtisodiy, huquqiy va boshqa xususiyatlarining butun majmui asosida shakllanadi. Barcha davlatlarda xo‘jalik sub’ektlarning faoliyati natijasida yalpi ichki mahsulot (YAIM) va milliy daromad (MD) yaratiladi. Moddiy ishlab chiqarish darajasida ishlab chiqarilgan milliy daromad taqsimlash va qayta taqsimlash bosqichlaridan o‘tadi. YAlpi ichki mahsulot (YAIM) va milliy daromad (MD) qayta taqsimlashda va foydalanishda byudjet muhim vazifani bajaradi. Mamlakatda MD ni qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismi pul shaklida byudjetga tushadi va moliyaviy resurslarning markazlashgan fondini tashkil etadi.

¹Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари.-Т.: «Ўзбекистон», 1998 йил. 86 б.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC

SOLUTIONS

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch.
 2. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF UZBEK PEDAGOGY IN DEVELOPING THE SPIRITUALITY OF FUTURE TEACHERS. Modern Science and Research, 3(5), 386-392.
 3. Alimova, S. (2024). THE MAJOR FACTORS INFLUENCING ON CAREER DEVELOPMENT AND ON ADVANCE OF A CAREER LADDER. Modern Science and Research, 3(5), 417-425.
 4. Заявитдинова, Н. М., Базарова, М. С., & Ходжиев, А. Б. (2022). ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА СТРАТЕГИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА. ББК 65.0501 А 43, 265.
 5. Supiyevna, B. M. (2024). WAYS OF EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN. Gospodarka i Innowacje., 51, 131-137.
 6. Бозорова, М. С. (2021). Глава 10. Стратегия внедрения цифровых технологий и современных методов в образовательный процесс. In Инновационное развитие науки и образования (pp. 122-132).
 7. Shadiyev, A. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM IN ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS. Modern Science and Research, 3(8), 10-18.
 8. Shadiyev, A. X. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM DEVELOPMENT CHARACTERISTICS. Gospodarka i Innowacje, 51, 108-115.
 9. Shadiyev, A. K. (2021). Development and organization catering service in hospitality. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 381-387.
 10. Ibodulloyevich, I. E. (2024). O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. Gospodarka i Innowacje., 51, 258-266.
 11. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Tadbirkorlik Faoliyatini Davlat Tomonidan Qo ‘Llab-Quvvatlanishi Va Sohaga Mintaqalar Miqyosida Investitsiya Jalg Qilish Samaradorligi. Miasto Przyszlosci, 53, 515-523.
 12. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLALARDA KAMBAG’ALLIKNI QISQARTIRISH VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH. Gospodarka i Innowacje., 42, 504-507.
 13. Hakimovich, T. M. (2024). Xizmat Ko’rsatish Sohasida Aholi Bandligini Oshirishning Nazariy-Metodologik Asoslari. Miasto Przyszlosci, 54, 987-995.
 14. Toshov, M. (2024). IQDISODIY NOCHOR KORXONALARINI MOLIYAVIY SOGLOMLASHTIRISHNING MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Modern Science and Research, 3(6).
 15. Khakimovich, T. M. (2024). FINANCIAL AND SUPPORT OF SMALL BUSINESSES BY COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Gospodarka i Innowacje., 51, 237-242.
 16. Nafisa, R. (2024). Formation of a Strategy for Sustainable Development of the National Economy. Miasto Przyszlosci, 54, 764-771.
- 
- 

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

17. Rakhmonkulova, N. (2024). Prospects for the Development of the Economy of Uzbekistan. *JOURNAL OF INTELLECTUAL PROPERTY AND HUMAN RIGHTS*, 3(10), 37-44.
18. Nafisa, R. (2024). Defects in Administration in Economic Development. *International Journal of Formal Education*, 3(9), 17-24.
19. Khalilov, B. B. (2024). MANAGERIAL ACCOUNTING-THE LANGUAGE OF BUSINESS MANAGEMENT. *Gospodarka i Innowacje*, 49, 249-255.
20. Bahodirovich, K. B. (2024). FINANCIAL LEVERAGE RATIOS AND ANALYSIS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 418-426.
21. Akbarovna, N. N., & Bahodirovich, X. B. (2023). AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARINI TUZISH TARTIBI.
22. Жумаева, З. К. (2016). Эффективность стратегического управления предприятием. *Наука и образование сегодня*, (2 (3)), 60-62.
23. Жумаева, З. К., & Тошев, Ф. З. (2017). Пути дальнейшего совершенствования привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. *Инновационное развитие*, (4), 66-68.
24. Jumaeva, Z. K., & Gafurov, E. O. (2022). Fiscal policy in ensuring the economic security of the state. In *Экономическая безопасность социально-экономических систем: вызовы и возможности* (pp. 358-361).
25. Sodiqova, N. T. R. (2024). KORXONADA KADRLAR SIYOSATINI OQILONA TASHKIL ETISH YO'NALISHLARI. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 54-62.
26. Tohir o'g'li, M. T., & To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION SIYOSAT. ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 45-53.
27. Turayevna, S. N. (2024). Человеческий Капитал Как Главный Фактор Генерации Экономического Развития В Узбекистане. *Miasto Przyszłości*, 54, 848-856.
28. Akbarovna, N. N. (2024). Oliy Ta'lif Muassasalarining Innovatsion Faoliyat Natijalarini Tijoratlashtirish Muammolari Va Ularni Hal Etish Yo 'Llari. *Miasto Przyszłości*, 54, 857-866.
29. Akbarovna, N. N. (2024). MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TURIZIMNING O'RNI NAZARIY USLUBIY ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 63-70.
30. Akbarovna, N. N. (2024). Servis Korxonalarida Xizmat Ko 'Rsatisf Sifatini Oshirish Omillari. *Miasto Przyszłości*, 53, 548-557.
31. Jumayeva, Z. B. (2024). ANALYSIS OF MACROECONOMIC INDICATORS. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 230-236.
32. Bustonovna, J. Z. (2024). TIJORAT BANKLARIDA BANK MARKETINGGI VA MIJOZLAR ISHLASHNING INNOVATSION STRATEGIYALARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 102-108.
33. Bustonovna, J. Z. (2024). WAYS OF EFFECTIVE USE OF STATE FINANCIAL RESOURCES IN ENSURING THE STABILITY OF THE NATIONAL ECONOMY. *Gospodarka i Innowacje*, 49, 242-248.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

34. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 191-195.
35. Mahmudovna, Q. G. (2024). Raqobatdoshlikni Oshirishda Innovatsion Salohiyatning Ahamiyati.
36. Qudratova, G. (2024). The Importance Of Innovative Activity In Increasing The Competitiveness Of Higher Education Institutions. *Modern Science and Research*, 3(2), 1257-1261.
37. Азимов, Б. Ф. (2024). Инновационные Стратегии Промышленных Предприятий: Факторы Формирования. *Miasto Przyszłości*, 54, 867-877.
38. Akbarovna, N. N. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 107-112.
39. Азимов, Б. Ф., & Гафарова, Д. Т. (2013). ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМА РЕСУРСНЫХ НАЛОГОВ. *In EKONOMIKA I UPRAVLENIJA: PROBLEMI NAUKI TA PAKTIKI* (pp. 278-279).
40. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalg Qilishda Soliqlarning O'Rni. *Miasto Przyszłości*, 54, 1206-1214.
41. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.
42. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalg Qilish Va Boshqarishning O'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.
43. Lolakhon, R. (2024). APPLICATION OF THE 4P CONCEPT IN TOURISM. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 138-145.
44. Rakhimova, L. (2024). THE CONCEPT OF 4P MARKETING. ELEMENTS OF THE MODEL. *Modern Science and Research*, 3(1), 812-816.
45. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O'RNI, SALOHIYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 48-52.
46. Otkirovich, N. S. (2024). Yashil Iqtisodiyotda Raqamli Transformatsiya. *Miasto Przyszłości*, 54, 1356-1364.
47. Sadullayevna, D. M. (2024). BASICS OF DIGITAL MARKETING. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 160-166.
48. Akbarovna, N. N. (2025). MENEJER FAOLIYATINING FUNKSIONAL VAZIFALARI VA UNING MADANIYATINING AHAMIYATI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 354-362.
49. Akbarovna, N. N. (2025). MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT TECHNOLOGIES. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(1), 242-249.